

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMLI TOSHKENT PEDAGOGIK UNIVERSITET

BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar
metodikasi” kafedrası

DAMINOVA DILNOVOZ

**MAVZU: Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qog'ozdan
amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi**

MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar: p.f.n.dots. X.Sanaqulov

TOSHKENT – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.

I- BOB. Boshlang`ich sinf mehnat darslarida qog`ozdan amaliy ishlar tashkil etishning pedagogik ahamiyati.

1.1.Boshlang`ich sinf mehnat darslarida qog`ozdan amaliy ishlarni tashkil etishning mazmuni.

1.2. Boshlang`ich sinf mehnat darsrida qog`ozdan amaliy ishlarni tashkil etishning psixologik-pedagogik ahamiyati.

1-bob bo'yicha xulosa

II- BOB. Boshlang`ich sinf mehnat darslarida qog`ozdan amaliy ishlarni tashkil etishning shakl va vositalari

2.1. Mehnat darslarida qog`ozni oddiy va murakkab usullarda buklash orqali turli shakllarni yasash texnologiyasi.

2.2. O'quvchilarni mehnat darslarida qog`ozdan applikatsiya va mozaika yasashga o'rgatish usullari

II -Bob bo'yicha xulosa.

3.BOB Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

3.1 Tajriba- sinov ishlarining tashkil etilish

3.2 Tajriba ishlarining natijalari va tahlili

3- BOB bo'yicha xulosa

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo'lgani kabi boshlang'ich ta'lim va o'rta ta'lim sohasida ham tub islohatlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da zamon talablari javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biridir.

Prizidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Agar, iqtisodiyotimiz baquvvat bo'lsa, yaxshi rivoj topsa, bundan madaniyatimiz ham madad oladi, rivoj topadi. Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak".¹

. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Mehnat ta'limi darslarini pedagogik jihatdan bilimdon bo'lgan o'qituvchilargina ulkan pedagogik samara beradigan darajada olib borish mumkin. Bunday pedagog o'qituvchi shaxsning manfaatlarini kasb tayyorgarligi manfaatlaridan yuqori qo'yadi. Uning kasbkorlik va shaxsiy fazilatlari, o'quvchi shaxsini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mehnat ta'limida malakali o'qituvchilar amaliy ish turlari bo'yicha maqsad va vazifalarni yoritib berishlari bilan bigalikda darsni tashkil etish metodikasini ham to'liq o'zlashtirgan bo'lishi mumkin.

¹ I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" Toshkent-2011 y

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida qog'oz bilan ishlash darslarini tashkil etish ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga hisobga olgan holda qo'l mehnati asosida tashkil etiladi. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik va aqliy imkoniyatlarini aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyingi sinflarda davom etilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar asosan ishlab chiqarish texnologiyalari mahsulotlari, qog'oz va karton turlari bilan ishlaydilar.

O'quvchilar qog'oz va karton turlari bilan ishlash darslarida qog'ozni buklash va unga ishlov berish kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, ularni ishlatishda foydalaniladigan asbob-uskunalaridan foydalanish qoidalarini texnologiyalarini bilishlari kerak. Shu sababli bitiruv malakaviy ish mavzusini «Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi» deb nomladim.

O'quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, bosiladigan qog'oz turlari: yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qog'ozlaridir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari; rangi, qalinligi, zichligi siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri – siliq g'adir-budirliqi bilan tanishadilar.

Bitiruv malakaviy ishning ishlanganlik darajasi. Respublikamizda mustaqillik yillarida umum ta'lim maktablarida ta'lim sohasida,

o'qitishni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning aqliy-jismoniy, estetik tarbiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat ta'limini o'qitish usullari texnologiyalari haqida olimlarimizdan K. Davlatov, R. Mavlonova, X. Egamov, I. Choriev, N. Shodiev, M. Magdiev, Sh. Sharipov, N. Muslimov va boshqalar o'zlarining darslik va uslubiy qo'llanmalari mavjud.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni tashkil etishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish .

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishni nazariy va amaliy asoslash.
2. Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish mazmuni, shakli, metodlarini aniqlash
3. Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish amaliy-didaktik vositalarini tanlash va amaliyotga tadbiq etish.
4. Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha amaliy topshiriqlarni, dars ishlanmalari, tavsiyalarini ishlab chiqish

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish mazmuni, shakli, vosita va metodlari.

Bitiruv malkaviy ishining ilmiy farazi: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish borasida yutuqlari qo'lga kiritish mumkin, agarda:

- qog'oz bilan ishlashga oid nazariy va ilmiy-metodik asoslar ishlab chikilsa va asoslab berilsa:

- qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqilsa va ta'lim jarayonida keng joriy etilsa:

- qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish mehnat ta'limining samarali usullaridan foydalanilsa:

- qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish ta'sir kursatuvchi omillar aniqlansa va mehnat ta'limi jarayonida ularni ko'chaytirishga alohida e'tibor qaratilsa:

Bitiruv malakaviy ishning metodi: mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, yozma va og'zaki so'rovlar, amaliy ishlar

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: III ta bob, 6 ta fasl , xulosalar va adabiyotlar ruyxatidan iborat.

1BOB. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qog'ozdan amaliy ishlar tashkil etishning pedagogik ahamiyati.

1.1 Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni tashkil etishning mazmuni.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o'rganadilar. Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat dars mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog'oz va uning turlari bilan ishlash, karton va uning turlari bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabilar bilan tanishadilar. Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejimli sarflash, mehnatga ijodiy yondoshish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar singdirib boriladi.

Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda qog'ozga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar qog'ozdan eng oddiy buyumlarni tayyorlash ishlarini eslab qolishga qodir emaslar.

Qog'ozga ishlov berishda hosil qilingan ko'nikmalar takror mashq qilishlar natijasida takomillashtirib boriladi. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga odatlantirish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o'quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Qog`ozdan amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko`nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo`l asboblardan foydalanishning o`ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Dars boshida o`qituvchi biror mavzu bo`yicha suhbat olib borar ekan, bu buyum qanday maqsadlarda, ya`ni qayerda ishlatilishini tushuntiradi, so`ngra o`quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo`laydilar.

Qog`ozdan buyumni tayyorlash usullarini o`qituvchi sinf doskasiga osib qo`yilgan yo`llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko`rsatadi. Shundan so`ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o`quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o`tadi.

Yuqoridagilar kelib chiqib, mehnat ta`limidan qog`ozdan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi.

1. O`quvchilar oldiga mehnat topshirig`ining maqsadi va mavzusini qo`yish:
 - a) darslarda bajarishga mo`ljallangan buyum yoki ishning o`quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;
 - b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko`nikmalarni egallash lozimligini ko`rsatish.
2. Ish o`rni, asbob-uskuna, qog`oz turlari, ish namunasi, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarini eslatish.
3. Qog`ozdan bajariladigan ishlarini oldindan rejalashtirish:
 - a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli qog`ozlarni, berilgan o`lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o'lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o'qish, ya'ni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Qog'ozni namuna, berilgan o'lchovlar bo'yicha belgilab chiqish. O'quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko'rsatib tushuntirayotgan o'qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Qog'ozga belgilash ishlarini bajarish. Qog'ozdan detallarni tayyorlash, qog'oz detallarni moslash va uning barcha detallarini yig'ish, qog'ozga ishlov berish jarayonida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash.

6. Ishning xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo'yish.

Mehnat ta'limida qog'ozdan amaliy ish mashg'ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o'qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Dars jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g'adur-budurligi bilan tanishadilar. Ba'zi narsalarni tayyorlashda bolalar elimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor elimlarining asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, elimlashni o'rganishlari kerak.

Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan uzlashtirish oladilar. Qog'oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari bo'yicha mehnat ta'limida keng ko'llaniladi.

**Qog`ozni buklash usullari.** Qog`ozni teng ikkiga buklash uchun qog`oz stol yoki parta ustiga qo`yiladi va o`ng hamda chap qo`li bilan qog`ozni uziga yaqin turgan tomonining ikki uchidan ushlab, uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi. Bunda qog`ozning uchlarning qirralari bir-biriga to`g`ri tushishi kerak. Ana shundagina qog`oz qo`l bilan tekislanib, uning bukilgan chizig`i ustidan tirnok bosib yurgiziladi.

**Qog`ozni bukilgan joyidan yirtish.** Qog`ozni yirtishdan oldin, avval ehtiyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni o`ng qo`l bilan bosilib, chap qo`l bilan bukilgan chiziqdan sekin yirtiladi, Bukilgan chiziq ustiga chizgichni qo`yib, xam qog`ozni yirtish mumkin.

**Qog`ozni bukilgan joyini pichoqda qirqish.** Qog`ozni buklab, tirnok bilan bosib iz tushiriladi. Shundan so`ng uning buklangan chizig`ini o`ng tomonga qilib stol ustiga qo`yiladi, uning orasiga pichoqni tiqib yurgiziladi.

**Qog`ozni kaychi bilan qirqish.** Qaychi o`ng qo`lda ushlanadi. Ish vaqtida qaychini harakatsiz ushlab, qirqilayotgan qog`ozni, undagi kesish chizig`i aniq ko`rinishi uchun aylantirib turiladi.

**Qog`ozni yopishtirish.** Stolning ustiga gazita yozib, uning ustiga kerakli o`lchamda qirqib olingan rangli yoki istalgan qog`oz qo`yiladi va mo`yqalam yordamida urtasidan chetiga avval chap, so`ngra o`ng tomonga qarab elim surtiladi. Elimni tez, yupqa qilib surtiladi. Elim surtilgan qog`ozni yopishtiriladigan predmetning ustiga qo`yib, uning ustidan g`ijimlanishlar bo`lmasligi uchun toza latta bilan bosib tekislanadi.

Qog`oz va kartonni o`lchash usullari. Mehnat darslarida qog`ozni o`lchash usullari unchalik murakkab emas va ular matematika darslarida qo`llanadigan asboblardan yordamida bajariladi. Birinchi navbatda bu oddiy chizgich, uchburchak chizg`ich va sirkuldir.

Qog`oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko`rinishidagi yig`ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O`qituvchi o`quvchilarning yig`ma chizmani o`qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o`lchamini aniqlash va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o`rgatadi. O`qituvchi o`quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko`rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o`lchami shakli qanday bo`lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to`g`ri burchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. Qog`oz va karton bilan ishlash mashg`ulotlari o`quvchilar oldindan qo`yidagi tayyorgarlik ko`rishadi: stolning ustiga qog`oz yozib, ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni olib tayyorlaydilar. Har bir mashg`ulot oxirida o`quvchilar keyingi mashg`ulotda kerakli bo`ladigan narsalarni yozib oladilar.

O`quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo`lishlari, o`z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo`yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo`llanilganidek qog`oz bilan ishlash darslarida ham ta`limning ko`rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, sxematik namuna, turli predmetlardan shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi.

1.2 Boshlang'ich sinf mehnat darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni tashkil etishning psixologik – pedagogik ahamiyati

Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, ahloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib o'z oldiga qo'yidagi maqsadlarni qo'yadi.

a) Bolarning mehnat tajribasini ularning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlik, mehnatga va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) Mehnat malakasi, mehnat madaniyati asoslarini, o'z ishi va o'rtoqlari ishini rejalashtirish va tashkil qilish malakalarini rivojlantirish.

Mehnat ta'limi dasturi talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Buyumlarni kundalik uchun zarurligi.
2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo'lgan dasturda ko'rsatilgan bilim va malakalarining mazmundorligi.
3. Barcha o'quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Mehnat ta'limining yangi dasturlari, metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Mehnat dasturlarida mehnat madaniyatining malaka va ko'nikmalari aks ettirilgan bo'lib, unga qarab maktab o'quvchisi, o'qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, mehnat madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi.

Mehnat ta'lim yo'nalishlaridan birinchisi bolada va o'smirda inson mehnati haqida va uning mehnatining mahsuli yaratilgan buyumlar to'g'risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi.

Mehnat ta'limining yo'nalishining ikkinchisi, o'quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to'g'risidagi tasvurlarni shakllantirish.

Mehnat ta'limining yo'nalishining uchunchisi esa hozirgi zamon o'quvchisi tabiatga ekologik munosabatda bo'lishni shakllantirish, uni qishloq xo'jaligi sohasidagi malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish kerak.

Mehnat ta'limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Qog'oz bilan ishlash darslarida o'quvchilarga ish urnini tashkil qilish, qog'oz va uning turlari, qog'ozdan buyumlarni yasash boskichlari haqida, ya'ni qog'ozni buklash, qirqish, yirtish, yig'ish va ishlov berish to'g'risida, ishni to'gatgandan so'ng xato va kamchiliklarni yo'qotish haqida va boshqalar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi.

Birinchi sinf o'quvchilari qog'oz bilan ishlash darslarida quyidagilarni o'rganadilar.

1. Qog'oz turlari —chizmachilik, rasm, gazeta, rangli qog'ozlar. Tashqi ko'rinishiga ko'ra — yaltiroq, baxmalsifat, bo'yalgan qog'ozlar.
2. Qog'ozlarning asosiy xususiyatlari: mustahkamligi, rangsizligi, bukiluvchanligi.
3. Qog'oz bilan ishlashda foydalaniladigan asboblari va moslamalar (qaychi, tekislagich, chizgich, qalamuchburchak lineyka, shablon, trafaret), ularning ishlatilishi, ishning texnik xavfsizligi.
4. Yasaladigan buyumning namunasini ko'rib chiqish. Detallar miqdori, shakli, har bir detal o'lchamalarining qiyosiy tahlili, detallarni birlashtirish usullari.

5. Teshiklar uchun ishlatiladigan asbob, yoyilma (razvertka) haqida ma'lumot.

6. Detal yigma eskizini o'qish: konturli, chiqariladigan o'lchamli chiziqlar. Bukish chizig'i. Eng oddiy razvertkalar — quticha, kubikcha.

7. Izchil bajariladigan ishlarni jamoaviy rejalashtirish.

Yangi texnologiyalar: xalqali applikatsiya..

Ikkinchi sinf o'quvchilari qog'oz bilan ishlash darslarida quyidagilarni o'rganadilar.

1. Tashqi qo'rinishi va maqsadga muvofiq qog'oz turlari: yaltiroq, jurnal, yozuv, duxobasifat, nusxa olish qog'ozlari.

2. Karton. Kartonning turlari va xususiyatlari. Kartonning qog'ozdan farqi.

3. Karton chetlariga ishlov berish - hoshiyalash.

4. Ko'p qatlamli applikatsiya. Tayyor elementlardan naqshli applikatsiya; geometrik shakllar; qog'ozning yirtiq bo'laklari.

yangi texnologiyalar: kartonga naqsh berish.

Uchinchi sinf o'quvchilari qog'oz bilan ishlash darslarida quyidagilarni o'rganadilar.

1. Karton. Kartonning turlari va xususiyatlari. Kartonning qog'ozdan farqi.

2. Karton chetlariga ishlov berish - hoshiyalash.

3. Ko'p qatlamli applikatsiya. Tayyor elementlardan naqshli applikatsiya; geometrik shakllar; qog'ozning yirtiq bo'laklari.

yangi texnologiyalar: kartonga naqsh berish.

Bolalarning ijodiy ishlari: ko'p qatlamli va naqshli applikatsii yasash.

To'rtinchi sinf o'quvchilari qog'oz bilan ishlash darslarida quyidagilarni o'rganadilar.

1. Qog'ozlar bilan ishlash.

2. Konus va tsilindr asosida hajmli narsalar tayyorlash va ularning elementlari bilan qog'oz plastikni bezash.

3. Taxlangan bir necha qatlam zagotovkadan erkin qirqish. Namunani mustaqil tahlil qilish. Mustaqil rejalashtirish. Narsalarning loyihaviy xususiyatlarini asoslash, uning maqsadini belgilash. O'z ishini baholash.

Qog'oz bilan ishlash darslari so'ngida bolalar quyidagilarni bilishlari zarur:

- o'rganilgan materiallarning turlari va ularning xususiyatlari;
- o'rganilgan amteriallarga qayta ishlov berish bo'yicha qo'l asboblarning nomlari va vazifalari, ular bilan ishlash xavfsizligi;
- har bir o'rganilayotgan materialning texnologik jarayoni bosqichlari;
- mehnat ob'ektini rejalashtirish, ularni tayyorlashning ahamiyatli belgilari va asosiy bosqichlarini farqlash;
- texnologik operatsiyalar bajarilishining izchilligini o'rnatish (rejalashtirish);
- majburiyatlarni taqsimlagan holda guruhlar bilan individual ishlash;
- topshirilgan shartlar bilan narsaning loyihasini o'zgartirish;
- asboblardan ishlash xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

Ishlab chiqilgan dastur ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, tadbirkorlikni shakllantirishni ta'limning boshlang'ich bosqichlarida amalga joriy qiladi. Ushbu dastur zamonaviy talablarga to'liq javob beradi, bolalarda atrof voqelikdagi turli hodisalarga moslashuv qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

I-bobga xulosa

Bugungi kunda respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilish, milliy kadrlar tayyorlashni zamon kadrlar darajasiga kutarish masalasi davlat mikiyosidagi muxim muammo sifatida karalmokda.

Shu boisdan bugungi kundagi mehnat ta'limi ham amalga oshirishi kerak bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib quygan. Bu vazifalarni bajarishda mehnat ta'limi o'qituvchisidan etuk bilimli, tajribali, mukammal bo'lishni talab etadi.

Mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarini qiziqarli, mazmunli va ilmiy-metodik jixatdan to'g'ri tashkil etish har bir o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

Har bir fan o'qituvchisiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan, shuning uchun mehnat darslarida qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanib tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat ta'limida qog'ozdan amaliy ish topshiriqlarini bajarishga o'rgatish o'qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta mashg'ulotni doimo nazorat qilishni, o'quvchilarni mashg'ulotga oid bilimlar bilan qurollantirib, uni amalda qo'llashni va mavzular mazmunini mukammalashtirib o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish talab etadi.

O'quvchilar mehnat darslarida eng avvalo qog'oz turlari, ishlab chiqarilishi, qog'ozning hususiyatlari, ishlov berish usullari bilan tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari dafgarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, bosiladigai qog'oz turlari: yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qog'ozlaridir.

Mehnat ta'lim darslarida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari; rangi, qalinligi, zichligi siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri – siliq g'adir-budirligi bilan tanishadilar.

Bu esa o'quvchilarni qog'oz va kartonga ishlov berish malaka va ko'nikmalarini egallashga, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga, bilimga qiziqishini o'stirishga yordam beradi.

II bob. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning shakl va metodlari.

2.1. Mehnat darslarida qog'ozni buklash va qirqish usulida turli shakllarni hosil qilish texnologiyasi.

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'limi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turdaridan biri “Qog'oz va karton bilan ishlash” ekanligini ko'ramiz.

Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari daft arlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, bosiladigai qog'oz turlari: yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qog'ozlaridir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari; rangi, qalinligi, zichligi siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri – siliq g'adir-budirligi bilan tanishadilar. Boshlang'ich sinflarda “Mehnat ta'limi” darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni bajarishga 1- sinf uchun 12 soat ajratilgan bular:

- Kitob uchun xat cho'p yasash
- Qog'ozni buklash asosida turli o'yinchoqlar yasash
- Rangli qog'ozdan “Baliq o'yinchog'ini yasash va qurish
- Maydalangan rangli qog'ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yasash va hokazo.

2- sinf mehnat ta'limi darslarida 13 soat qog'ozdan amliy ishlar bajarishga Qaratilgan quyidagi mavzulr asosida:

- Qog'ozni buklash usullari
- Rangli qog'ozlardan turli gullar shaklini yasash
- Qog'ozni buklash va qirqish orqali dekorativ gullar tayyorlash

- Rangli qog'ozdan quyuncha yasash va hokazo.

3- sinf “Mehnat ta’limi” darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni bajarishga 20 soat ajratilgan quyidagi mavzular asosida:

- Qog'ozdan xo'rozcha yasash
- Harakatli o'yinchoqlar yasash
- 8-mart bayrami tabriknomasini yasash
- Pape-mashe usulidan foydalanib idishlar yasash
- Yoz applekatsiyasini yasash va hokazo

4- sinf “Mehnat ta’limi” darslarida qog'ozdan amaliy ishlarni bajarishga 12-soat ajratilgan quyidagi mavzular:

- Mustaqillik bayramiga tabriknoma tayyorlash
- Geometrik shakllardan “Kuz” manzarasini qurish va yasash
- “Navro'z” bayramiga tabriknoma tayyorlash
- Turli qog'ozlardan kabutar yasash va hokazolar.

O'quvchilar mashg'ulotlarda qog'oz varaqlarini buklaydilar va to'g'rilaydilar, ularni qismlarga bo'lib yirtadilar va qirqadilar, bo'yaydilar. Shu bilan birga qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasaydilar.

“Qog'oz va karton bilan ishlash” o'quvchilarni garmonik rivojlantirishida katga ahamiyatga ega. Ayniqsa, (rangli qog'oz bilan ishlash ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, chamalash va rangni sezishni o'stiradi.

Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlariga oldindan qo'yidagicha tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga kog'oz yozib, ung tomoniga qaychi, elim uchun cho'tka, chizg'ich qalam avtoruchka, old

tomonlariga elim qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog`oz to`plamini qo`yadilar. Har bir mashg`ulot oxirida o`quvchilar keyingi mashg`ulotda kerak bo`ladigan narsalarni yozib oladilar.

O`quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo`lishlari, o`z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqdan unumli foydalanishlari, o`qituvchi ko`rsatmalariga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashg`ulotdan so`ng sinfni tozalab qo`yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo`llanilgani kabi mehnat darslarida ta`limning ko`rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek qog`oz va karton bilan ishlash mashg`ulotlarida o`quvchilar qog`ozni buklash yo`li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o`rganib boradilar. Ana shunday mashg`ulotlar davomida o`qituvchi quyidagi ko`rsatmali qurollardan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga o`quvchilar bu ko`rgazmalarni yasash bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin.

1. «Lola» ko`rsatmali quroli.

Yasash bosqichlari:


1-Bosqich: Rangli qog`ozdan kvadrat qirqib olinadi.

2-bosqich: Uni dioganallari bo`yicha buklanadi,


3-bosqich: Buklangan do`ppi shakliga keltiriladi.

4-Bosqich: Buklashdan hosil bo`lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridaga uchinchi uchiga qarab, unga etkazdirib

buklanadi. 5-bosqich: Xuddi shuningdek, orqa tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga qarab buklanadi.



(1)




(2)

6-Bosqich: hosil bo'lgan shaklda cheti o'rtada hosil bulgan chiziqqa tomon buklanadi.

7-bosqich: Shaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

8-Bosqich: Oxirgi buklangan shakllarning xar biri orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangadan so'ng ularning uchlari bir-biriga kiygizdirib qo'yiladi. Keyin shaklning pastki ochiq tomonidan asta puflanadi. Shaklning yukori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada «lola» shakli hosil bo'ladi. Lolaning bandini boshka qog'ozni tsilindr shaklida urab, uni lolaning pastki, puflangan qismiga kiritib quyish bilan qilish mumkun. Bu bandga lolaning bargini, g'unchasini ham yopishtirib qo'yish mumkin.


Lola



(3)



(4)



(5)



(6)



(7)



Tayyor bo'lgan Lola guli

2. «Qaldirg`och» ko`rgazmali quroli.

Yasalish bosqichlari.

Buni yasashda birinchi va ikkinchi bosqichlar xuddi «Lola» ko`rsatmali qurolidagidek amalga oshiriladi. Lekin 2- Bosqichda hosil bo`lgan uchburchakning faqat bir tomonidagi pastki ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qaratib buklanadi.

3-Bosqich. hosil bo`lgan shaklni «Lola» dagi kabi chetlari o`rtaga hosil bo`lgan chiziqqa tomon ham yuqoridan, ham pastdan buklanadi. Bunda o`rtaga qarab buklangan uchiyuqori ko`tariladi.

4-Bosqich. Yuqoriga ko`tarilgan uchidan ushlab, shakl teng ikkiga buklanadi va qaldirg`ochning bosh qismi hamda qanoti hosil qilinadi. Uning dumi esa to`rtburchak shaklidagi qog`oz bo`yicha 2-3 marta buklanadi. So`ngra, u qaldirg`och yasash jarayonidagi 4-Bosqichni bajarmasdan oldin shaklning buklanmagan tomonidagi uchburchakning ichiga kiritiladi. So`ngra 4- bosqich bajarilsa, «qaldirg`och» hosil bo`ladi.

3. «Qurbaqa» ko`rsatmali quroli.

Sinf: 1-sinf

Mavzu: Qog`ozdan “Qurbaqa” ko`rgazmali quroli

Darsning maqsadi:

- A)** ta`limiy maqsad. O`quvchilarga mavzu orqali “Qurbaqa” yasashni o`rgatish qog`ozlarni tahlash buklash ko`nikmasini shakllantirish. Yasalgan “Qurbaqa”ga qo`shimcha ishlov berishga o`rgatish.
- B) Tarbiyaviy maqsad:** O`quvchilarga mavzu orqali jonivorlarga mehr muhabbatli bo`lish ularga ozor yetkazmaslik va jonivorlarga nisbatan mehribonlik ruhida tarbiyalash.

C) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda mehnat to'g'risida bilim ko'nikma malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tafakkurini o'stirish.

Dars turi: An'anaviy

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: tushintirish, suhbat, ko'rgazmalilik

Dars jihozi: rangli qog'ozlar, yelim, qaychi, qalam, chizg'ich, ko'rgazmali rasm

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

a) salomlashish

b) davomatni aniqlash

c) o'quvchilarni darsga hozirligini tekshirish

Ma'naviy daqiqa.

- Hozir o'lakamizda qaysi fasl! (Kuz fasli)
- Bu faslda qanday o'zgarishlar ro'y beradi? ... (yomg'ir yog'adi, daraxtlar bargi sarg'ayadi va bargini to'kadi, ...)

Kuz faslida qanday bayramlar bor?

(Mustaqillik kuni, "O'qituvchilar kuni", "Til bayrami"!)

II. uy vazifasini tekshirish va baholash.

Ungcha o'quvchilar DVD tasmaiga yozilgan ertakni eshitishadi. Uy vazifasini yaxshi bajarib kelgan o'quvchining ishi na'muna qilib ko'rsatiladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

bolajonlar hamma darsga tayyormi

Bugun biz sizlar bilan "Qurbaqa" maketini yasashni o'rganamiz.

Yangi mavzuni boshlashdan oldin

"jismoniy daqiqa" o'tkaziladi.

O'ng qo'limda qaychijon

Chap qo'limda qog'ozboy

Qiziqaman yelimlayman

Mehnatdan men qo'rqmayman

Yasash bosqichlari:

1-Bosqich: Kvadrat shaklidagi rangli qog'ozni qirqib olinadi 2-Bosqich: Do'ppi shaklida buklanadi.

3-Bosqich. Hosil bo'lgan uchburchakning bir tomonidagi pastki ikki uchi yuqoriga qaratib buklanadi.

4-Bosqich: Yuqoriga buklangan tomonning pastki qismidagi ikki uchi o'rtadagi chiziqqa etkazdirilib yuqoriga buklanadi.

5-Bosqich. Uchburchakning orqa tomonidagi ikki uchi esa haklning yuqori qismidagi uchidan ichkariga qaratib pastga buklanadi.

6-Bosqich: buklangan qogozning ichkariga buklangan qirg'og'i orqaga qaytarib, yangi hosil bo'lgan uchburchak chetiga etkazib buklanadi.

7-Bosqich: Hosil bo'ltan shaklning katta-kichikligiga qarab uning pastki qismidan 1-2 sm qismi ichkariga buklanadi. 8-Bosqich: buklangan qismidan 0,5-1 sm qolirib, avvalgi holatga tomon yani tashqariga buklanadi. Natijada "Qurbaqa" hosil bo'ladi. Buni, buklangan joyidan salgina bosib, so'ng qo'yib yuborilsa, u xuddi tabiiy qurbaqadek sakraydi. Shuningdek bu shaklga yana qurbaqaning ko'zi va og'zini ham chizish mumkin.

Keyin bolalar bilan mavzu yuzasidan savol javob o'tkaziladi savollar proyektorda ovoqli tarzda ko'rsatiladi va eshitiladi. Savollardan namunalar.

- Bolajonlar qurbaqa qanday hayvon?
- U qayerda yashaydi?
- Qurbaqalarning qanday turlari bor?

- Qurbaqalarning ranglari qanday bo'ladi

Qani endi bolajonlar “qurbaqa” yasashni boshlaymiz. Bizga rangli qog'oz , qaychi, chap tomonda qog'ozlar, oldinda yelim ahlat uchun quticha.

Mustahkamlash

Bugungi mavzu sizga yoqdimi? ...

Hammaga tushunarli bo'ldimi?...

Unday bo'lsa mening sizlarga savolim bor.

Qurbaqa yasash uchun bizlarga nimalar kerak ekan?...

Qurbaqa yasashni kim menga ketma – ket aytib beradi?...

Javoblar uchun rahmat


-hayvonlar bizning do'stimiz, biz ularni qiynamasligimiz, ozor bermasligimiz va och qoldirmasligimiz kerak.

Bolajonlar endi siz bilan “Davomini” to'ldir” o'yinini o'ynaymiz.


- Mehnat mehnatning
- Ish ishtaha ochar
- Birni kessang
- Mehnat bilan topganing

Uyga vazifa


Qurbaqa



(1)



(2)



(3)



(4)



Tayyor holga kelgan Qurbaqa

4. “Xo’rozcha ko’rsatmali quroli.

Yasash bosqichlari.

1-Bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog’oz olinadi 2-Bosqich: qirqib olingan shaklning barcha uchlari kvadrat o’rtasiga qarab buklanadi.

3-Bosqich. Hosil bo’lgan kvadratning orqasi o’giriladi, uning uchlari ham kvadrat o’rtasiga etikazib buklanadi. 4-Bosqich: Bundan oldingi ish yana bir marta bajariladi.

5-Bosqich. Hosil bo’lgan kvadratning uchlari o’rtaga etkizib buklangan tomonining orqasiga ugriladi 6-Bosqich: hosil bo’lgan to’rt burchakning qarama-qarshi uchlariidagi shakllar to’rtburchak shaklida tashqariga buklanadi.

7-Bosqich. Kvadratning tashqariga buklanmagan ikki uchidan ushlab uni tashqariga qarab to’ntarilsa, “Xo’rozcha” hosil bo’ladi. So’ngra hosil bo’lgan shaklning bir uchini buklash bilan xo’rozchaning tumshug’ini hosil qilish mumkin.

5. “Kobra” ko’rsatmali quroli”

YAsash bosqichlari.

1-Bosqich. Bu bosqichda xo’rozchadagi birinchi bosqich kabi bajariladi.

2-Bosqich. Hosil bo’lgan kvadratning ikki qarama-qarshi tomoni orqa tomonga kvadratning o’rtasiga etkazib buklanadi.

3-Bosqich. Orqaga buklangan ikki tomonining yuqori uchlari o’rtasida hosil bo’lgan chiziqqa qarab, uchburchak hosil bo’ladigan qilib pastga tomon buklanadi.

4-Bosqich: Shaklning pasti tomonining o’rtasidan ozgina joy qiyib olib tashlanadi. 5-Bosqich: Hosil bo’lgan shaklni bir nechta marta buklangan eni 1sm, uzunligi 10-15 sm bo’lgan qog’oz shaklning ikkinchi tomoniga

etib borguncha kiritiladi. 6-Bosqich: Hosil bo'lgan shaklning yuqori tarafidan 3-bosqichda buklangan qismi yana shu buklangan tomonga qaratib buklanadi. Natijada "Kobra" hosil bo'ladi. Kobraning tanasi kirgan pastki tomonidagi uchi esa ichkariga qaytarib buklab qo'yiladi.

2.2. O'quvchilarni mehnat darslarida qog'ozdan applikatsiya va mozaika yasashga o'rgatishning shakli va usullari

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida kabul qilingan materiallar xisobiga mustaxkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikatsiya tushunchasi xususiyatlari va materiallariga kura xilma-xil bajarilishi texnikasining uxshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini uz ichiga oladi. Xar bir material applikatsiyasi bajarilish texnikasiga jiddiy ta'sir kursatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog'oz, limon, daraxlar pustlog'lari fonga turli elimlar bilan yopishtiriladi.

Applikatsiya – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yin uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo'llash imkonini beradi.

Dekorativ applikatsiya – u nashk, gullardan tashkil topib, aloxida-aloxida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, xodisa, xarakatlar uygunligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bulishi mumkin.

Applikatsiya tasvirlash texnikasini turli formalarini qirqish va ularning fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida pustlog'dan foydalanishgan, bo'yalgan pustlog'dan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshka shimoliy xalqlari

applikatsiyada teri, sukno, muyna ishlatishgan. Komi, qozoq, qalmiq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan bo'lakchalardan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simliklar, urug'-danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo'ladi.

Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan-barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog'ozi navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, qog'oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish, elimlash va nihoyat quritish jarayonlari keladi. Oddiy applikatsiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikatsiya ishlarini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi uylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir.

Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik figuralardan qilingan ornamental applikatsiyalardir.

Avval ornament eskizi tuziladi, so'ngra krakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detaillarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detalidan boshlash kerakligi aniqlanadi.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detaillarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detalidan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

Geometrik shaklli applikatsiyalar. Bajarilish texnikasiga ko'ra applikasiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. 1 va 3 sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikasiyani bajarishda qo'ydagi bilimlarni egallaydilar.

Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylanani qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.

Badiiy didni o'stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.

Ayrim predmetlarni detalma-detall tahlil qilib geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.

Bolalarni "ko'p, kam, uzunasiga, kungdalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to'rt qismga, teng qismlarga" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

Bolalar ranglar uyg'unlagini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikasiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikasiyalarga ajratish mumkin.

Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornament detallari: turli ulchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naksh

diagonal buyicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish kulay. Doirada naksh markazdan radiuslar buylab tuziladi.

Geometrik figuralardan predmetli applikatsiyalar.

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, darxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko'rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilarini kattaroq, kaysilarini kichikrok olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo'lsin.

Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik, tartiblik tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Ko'p rangi applikatsiyalar. Ko'p rangi applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi

o'ylagan asarga bog'liq. Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarninig tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqiladi.

Ko'p rangli applikatsiyalardan biri dekorativ applikatsiyalardir. Dekorativ applikatsiya - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo'lishi mumkin.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo'lda yaratishlari mumkin. SHarq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikatsiya bir va ko'p rangli bo'lishi mumkin.

Badiiy applikatsiyalar. Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Mehnat ta'limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarilish texnikasi o'rganiladi.

Rangdor surat applikatsiya mavzusining elementlarini o'quvchilar turli bayramlarga bag'ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo'l belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq tondagi qog'oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi. Asar xajmiga kura eng katta detal mavzuli detal bulishi kerak.

Syujetli applikatsiya. Syujetli applikatsiya asariga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab syujetli applikatsiya – ertaklar,

hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamasdan qirqish mumkin.

Murakkab syujetli applikatsiya ham syujet tanlashdan boshlanadi. Agarda syujetni o'quvchining o'zi o'ylab topgan bo'lsa, bu rasmni chizish malakasiga ega bo'lsa, unda avval syujetni rasmi, so'ngra rasmlar detallari chiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi qog'ozlardan kirkiladi. Agarda o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlagan rasmdan kora qog'oz yordamida nusxa ko'chirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, xar bir detalni rangli qalam bilan atrofi chizib chiqiladi. Ularni kirkib olib, syujet yoki narsa detallari qog'ozga yig'iladi. Syujet yoki predmetning tabiiy ko'rinishiga putur etmasligi uchun ularni qaysi tartibda elimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

Ko'chaytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikatsiyadan foydalanish mumkin.

Mavzuli applikatsiya. Mavzuli applikatsiya ma'lum mavzuni aks ettirishi lozim u badiiy asr uchun illyustratsiya, applikatsiya plakat bo'lishi mumkin. Badiiy tematik applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy anikliklarni, qismlarning o'zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish kabilarni ifodalashi kerak

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Tasvirlash lozim bo'lgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar elimlanadigan sath, ya`ni fonga joylashtiriladi va o`ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir ma`qul bo`lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o`rnini qalam bilan belgilab qo`yiladi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko`ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o`qini o`tkazish va elementlarni shunga ko`ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko`pincha ochiq tondagi qog`oz va fon tanlanadi. Applikatsiya mo`ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog`ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy e`tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o`lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko`ra eng katta element asosiy tematik element bo`lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o`quvchilari 8 – Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko`nikmalarini sinaydilar va rangli qog`ozdan ingichka oq va sariq to`g`ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog`ozdan doira qirqa bo`ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo`lishi mumkin. Novdalar ham qo`lda qirqiladi.

Suhbatni o`qituvchi “8 Mart kuni” haqida olib boradi va bunda sovg`a masalasini eslatib o`tadi. Eng yaxshi sovg`a o`z qo`li bilan yasagan sovg`adir. Suhbatni mehribon buvijonlarimi onajaonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo`lishi mumkin.

SHundan keyin namuna ko`rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. Tabriknoma uchun qog`oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;

2. Ko'k rangdagi qog'ozga to'g'ri burchak chiziladi, uning o'lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2sm atrofida kattaroq;


3. Ko'k qog'ozdan qirqilgan to'g'ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko'k qog'oz taklifnomani bo'yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig'ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;

4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni kerakli o'lchamda qirqiladi;

5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;

6. Och ko'k va jigar rang qog'ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;

7. Gullar qirqib yopishtiriladi.





Ish ijodiy tarzda bo'lganligi uchun o'quvchilar gullarni shoxlarga o'zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o'qituvchi tarqatgan andoza bo'yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so'zi yoziladi.

Mozaika monumental dekorativ sa`nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materialiga ko'ra ham, naqo' va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyo madrasalari, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental sa`natga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va halq amaliy sa`nati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sapol plitalaridan foydalaniladi. Loasda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir.

1.Qog'ozdan mozaika ishlarini bajarish uchun keraksiz chiqindi qog'oz bo'laklari olinadi.

2. Qog'oz bo'laklari tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.

3.Qog'oz bo'lagidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga elim surtiladi. U erga qog'oz bulagi terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha elim toza latta bilan artib tozalanadi, qog`oz yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Sinf. 2-sinf

Mavzu: Rangli qog`ozdan qorbobo applikatsiyasini yasash

Darsni maqsadi:

Ta'limiy: Applikatsiya haqida o'quvchilarga umumiy tushuncha berish. Qog`oz turlari haqida ma'lumot berish. Rangli qog`ozdan qorbobo applikatsiyasini yasash yullarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: Asboblardan to'g'ri foydalanish qoidalariga rioya qilishga o'rgatish. Estetik didini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Applikatsiyani yasash buyicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Kasbga yo'naltiruvchi: O'quvchilarga rassomlik, dizayneyrlik kasbi haqida ma'lumot berish va qiziqtirish.

Darsning jihozi:

Ko'rgazmali vositalari: Applikatsiyalar tasvirlangan ko'rgazmalar, turli rasmlar yasash bosqichlari tasvirlangan ko'rgazmalar, testlar.

Ish materiallari: rangli qog`oz to'plami, qaychi, elim, oq qog`oz, qalam, chizg'ich.

Dars uslubi: Suhbat

Aqliy hujum

Ko'rgazmalilik

Guruhlar bilan ishlash

Tahlil qilish

Dars bosqichlari:

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)
2. O'atilgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)
3. Yangi mavzu bayoni (8 daqiqa)
4. Amaliy mashg'ulot (20 daqiqa)
5. Namuna tahlili (5 daqiqa)
6. Dars yakuni va o'quvchilar ishini baholash (5 daqiqa)

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)

- O'quvchilar bilan salomlashish
- O'quvchilar davomatini aniqlash
- Fasl haqida suhbat o'tkazish

2. O'atilgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)

O'atilgan mavzu buyicha savol-javob:

- a) Qanday gazlama turlarini bilasiz?
- b) Gazlamadan nimalar tayyorlash mumkin?
- v) Gazlamaning xususyatlari bir xilmi?
- g) Nina qadagich tikishni bajardingizmi?

3. Yangi mavzu bayoni (8 daqiqa)

Bugun biz siz bilan applikatsiya xakida va rangli qog'ozdan geometrik shaklli applikatsiya yasashni o'rganamiz.

Amaliy mashg'ulot (20 daqiqa)

1. Namuna taxlili;

- a) Qorbobo qanday qismlardan tashkil topgan?
- b) Uning qismlari qanday joylashgan?
- v) Uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

- a) Geometrik shaklli applikasiya uchun fon tanlash
- b) Qorbobo ning ayrim qismlari (tanasi, kul va bosh qismi)ning joylashishini grafik tasvirlash;
- v) Qorbobo ning tanasi va boshqa qismlari uchun rangli qog`ozdan ulchamlarini olish va shaklini qirqish;
- g) ularni qog`ozda joylashtirish;
- d) ishni amaliy bajarish.

3. O`qituvchining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.

4. Applikasiyani bajarish bo`yicha mustakil ish:

- a) Qorbobning ayrim qismlarini qog`ozda to`g`ri tasvirlash;
- b) shakl, o`lcham va bo`yoqlarni to`g`ri tanlash;
- v) elimlash ishlarini tartibli bajarish;
- g) Qorboboning ko`zi, burni va og`zini to`g`ri tasvirlash;
- d) ish bajarilgan qog`ozning orqasida foydalanilgan applikasiya nomini yozish;

5. Ishni taxlil qilish. (5 daqiqa)

Yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklarin aniklash

Xato va kamchiliklarni bartaraf qilish.

6. Dars yakuni va ishni baxolash. (5 daqiqa)

Sinf. 3-sinf

Mavzu: Rangli qog`ozdan geometrik shakllardan “Kuz” applikasiyasi yasash.

Darsni maqsadi:

**Ta`limiy:** Applikasiya va uning turlari haqida o`quvchilarga umumiy tushuncha berish. Qog`oz turlari haqida ma`lumot berish. Geometrik shakllardan predmetli applikasiya yasash yo`llarini o`rgatish.

Tarbiyaviy: Texnika xavfsizligi qoidalariga, to'g'ri o'tirish qoidalariga, sanitariya-gigienik qoidalarga rioya qilishga o'rgatish. Estetik didini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Geometrik shakllardan predmetli applikatsiyani yasash bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Kasbga yo'naltiruvchi: O'quvchilarga rassomlik, dizayneyrlik kasbi haqida ma'lumot berish va qiziqtirish.

Darsning jihozi:

Ko'rgazmali vositalari: Geometrik shakllardan predmetli applikatsiyalar tasvirlangan ko'rgazmalar, turli rasmlar yasash bosqichlari tasvirlangan ko'rgazmalar.

Ish materiallari: rangli qog'oz to'plami, qaychi, elim, oq qog'oz, qalam, chizg'ich.

Dars uslubi: Suhbat , Aqliy hujum , Ko'rgazmalilik , Guruhlar bilan ishlash , Tahlil qilish .

Dars bosqichlari:

- 1.Tashkiliy qism (3 daqiqa)
- 2.O'tilgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)
- 3.Yangi mavzu bayoni (7 daqiqa)
- 4.Amaliy mashg'ulot (20 daqiqa)
- 5.Namuna tahlili (5 daqiqa)
- 6.Dars yakuni va o'quvchilar ishini baholash (5 daqiqa)

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)

O'quvchilar bilan salomlashish

O'quvchilar davomatini aniqlash

Fasl haqida suhbat o'tkazish

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)

O'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob:

- a) Loy qanday material ekan?
- b) Loyni tayyorlash texnologiyasi qanday?
- v) Loyning xususiyatiga ko'ra necha xil bo'lar ekan?
- g) Loyga qanday shakllar beriladi?
- d) Loydan nimalar yasashni o'rgandik?

3. Yangi mavzu bayoni (8 daqiqa)

Bugun biz siz bilan applikatsiya sa'nati va uning turlari, rangli qog'ozdan applikatsiya yasashni o'rganamiz.

Amaliy mashg'ulot (20 daqiqa)

1. Namuna taxlili;

- a) Qanday mavzudagi applikatsiya tasvirlangan?
- b) Applikatsiya qanday shakllardan tashkil topgan?
- v) Shakllari qanday joylashgan?
- g) Uni tasvirlashda qaysi ranglardan foydalanilgan?

2. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

- a) Applikatsiya ishi uchun fon tanlash;
- b) Geometrik shakllardan predmetli applikatsiyadagi turli shakllarni (uy, daraxt, mashina va gullar)ning joylashishini grafik tasvirlash;
- v) Geometrik shaklli predmetlar uchun rangli qog'ozdan o'lchamlarini olish va shaklini qirqish;
- g) ularni qog'ozga joylashtirish;
- d) ishni amaliy bajarish.

3. O'qituvchining ishni bajarish usullari haqidagi tushintirishlari.

4. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:

- a) Geometrik shakllardan predmetli applikatsiyaning detallarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;

- b) shakl, o'lcham va bo'yoqlarni to'g'ri tanlash;
- v) elimlash ishlarini tartibli bajarish;
- g) Ayrim qismlarni tasvirlashni va bezak berish ishlarini to'g'ri bajarish;
- d) ish bajarilgan qog'ozning orqasida foydalanilgan applikatsiya nomini yozish;

5. Ishni taxlil qilish. (5 daqiqa)

Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarin aniqlash

Xato va kamchiliklarni bartaraf qilish.

6 .Dars yakuni va ishni baxolash. (5 daqiqa)



II- bobga xulosa

Boshlang'ich sinf mehn

at darsida qog'oz va karton bilan jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda qog'oz bilan ishlash mashg'ulotlarida aplikatsiyalar va mozaikalar yasashga o'rgatishni tashkil etish, o'quvchilardagi egallagan bilim ko'nikmalarini mehnat jarayonida qo'llash imkonini beradi.

Applikatsiya va mozaika ishlarini bajarish ishlari esa o'quvchilarni aplikatsiya va mozaika sa'natning oddiy elementlari bilan tanishib, ishlashga o'rgatadi.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidanoq turli mehnat jarayonlariga tayyorlash ularni kelajakda etuk bilimli mutaxassis va kasb-hunar egasi bo'lib etishishlarida yordam beradi.

3.BOB Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

3.1 Tajriba sinov ishlarining tashkil etilishi

Tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni applikasiya yasashga o'rgatish orqali ularning ijodkorligini rivojlantirish ishlari lib b,orildi. Tajriba-sinov

ishlarini amalga oshirish uchun 2011-2012 yillar mobaynida Shayxontoxur tumani 34-maktabning boshlang'ich sinflarida tajriba guruhlarida-(amalga oshirildi, nazorat guruxlarida esa an'anaviy uslubda o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishning dastlabki izlanuvchan bosqichida o'quvchilarning applikasiya to'g'risidagi bilimlari borligini so'rab bilish va olingan natijalarni taxlil qilib, ular bilan ishlash yo'nalishini belgilab olishni maqsad qilib qo'ydik.

Mazkur metod orqali nafaqat applikasiya balki boshqa narsalarga qiziqishlar darajalariga e'tibor berildi.

Jadval 1.1.

Tajriba-sinov va nazorat maydonlari tarkibi

№	Tajriba sinov maydoni	Maktab №	sinflar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	O'quvchilar soni
		34-maktab	1-d, 1-g sinflar	30	30	60
			2-a,2-b sinflar	30	30	60
			3-a, 3-b sinflar	30	30	60
			4-a, 4-b sinflar	30	30	60
	Jami		8 ta sinf	120	120	240

Tajriba-sinov ishlarining izlanuvchan va ta'kidlovchi bosqichlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari 1-2-3-4 sinf o'quvchilariga applikatsiya turlari shakllari xaqidagi bilimlari tekshirib ko'rildi **1-daraja** - applikatsiya xaqidagi bilim darajasi sust bo'lgan o'quvchilar. Ular applikatsiya tug'risida tor doirada ma'lumotga egadir.

2-daraja - o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchilar. Bu guruhga kiruvchi o'quvchilar applikatsiya turlari shakllari to'g'risida tushunchaga ega, biroq ular o'z shaxsiy sifatlari va bilim darajasiga javob beruvchi aniq shakllangan bilimlar doirasini belgilab olmagan. Shu sababli ularda muayyan applikatsiya mavzulariga qiziqish davriy xususiyatga ega bo'ladi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi.

№	Maktab	sinflar	O'quvchilar soni	Aniq BKM	100 %	90-99%	80-89%	70-79%	70% past	Umumiy %	Samaradorl
	34m aktab	1 d	3 0	1 5	2	6	1 0	1 0	2		
		2 a	3 0	1 5	3	1 0	8	9	-		
		3 a	3 0	1 5		9	9	1 0	1		
		4 a	3 0	1 5	1	8	1 0	1 1	-		
	jami		120	15	6	33	37	40	3		

Jumladan 1a sinf o'quvchilaridan 2 nafari 100 foiz ya'ni a'lo baxo olgan bo'lsa, 6-nafari 90-99 foizgacha, 10 nafari 80-89 foiz, 10 nafari 70-79 foiz, 2-nafari 70 foizdan kam ball olishga muvaffaq bo'lgan.

Ular bilan o'tkazilgan suhbatdan ma'lum bo'ldiki, ularning bu tahlitda javob berishlariga qayd etilgan qog'oz turlari ulardan narsalar yasash usullari xaqida tasavvurlari o'rganib chiqildi

Biz pedagogik ilmiy tajriba davomida qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish yordamida o'quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirish ishlari samaradorligi mezonlarini aniqlash zyrurligini ham o'z oldimizga vazifa qilib qo'ygan edik. Insonpararlik tushunchalari haqidagi belgilovchi anketa savollarini tajriba sinovlarida o'tkazdik. Natijada pedagogik tajriba ishlari davomida xalq maqollari yordamida o'kuvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirish darajasi o'rganildi. Shunga asosan shaxs ongi va hissietida aks etadigan hamda xulq atvorida ko'zga tashlanadigan muhim belgilar-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ahloqiy-mehnatsevarlik fazilatlarning shakllanganlik darajasi o'quvchilarda qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish ko'nikmasini shakllanganlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ldi. Shu sababli biz tadqiqot ishlari davomida kuyidagi xulosaga keldik. Qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish yordamida o'quvchilari shaxs kamolotida mehnatsevarlik haqida tushunchalarni egallagan bo'lishi lozim.

Mehnatsevarlikni shakllanganlik darajasini aniqlashda o'quvchilarning egallagan bilim va tushunchalari hayotlarida qo'llashlari nazarda tutildi. Mehnatsevarlikni shakllanganligi shartli ravishda quyidagi-larda o'z ifodasini ko'rsatdi, mehnatsevarlik haqida egallagan tushunchalari o'kuvchining xulqida bilimlari asosida aqlii rivojlanishida namoyon bo'ldi. Kichik yoshdagi o'kuvchilar atrof-muhitga o'z

munosabatini bildiradigan, tengdoshlaridagi mehnatsevarlik fazilatlarini qadrlaydigan bo'lib, ularni o'z faoliyatida namoyon eta boshladilar. Buning natijasida kichik yoshdagi o'quvchining ongi va fe'l - atvorida o'zgarishlar ro'y berdi. O'quvchilar odamlarning yurish - turishlariga ahamiyat bera boshladilar. Biz ularni quyidagicha belgiladik:

1.Qog'oz haqidagi tushunchalar - hayotiy va amaliy mazmundagi mehnatsevarlik fazilatlaridan iborat bo'lib, o'quvchi faoliyatida, hayotida keng o'rin oldi.

2.O'quvchida qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish ko'nikmalarining shakllanishi natijasida do'stlari, o'rtoqlari, ota-onalari va boshqa kishilarning hayotida yuz berayotgan voqia-hodisalarga o'z munosabatini bildirish, turli vaziyatlarga to'g'ri yondoshish va uni har tomonlama ijobiy hal qilishning eng qulay yo'llarini topish, voqia - hodisalarning rivoji hamda oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, kundalik hayotidagi voqialarni ota-onalariga aytish va uni tahlil qilish, bu haqida munozara yurita bilish kabilar rivojlanib bordi.

3. Qog'oz haqidagi ko'nikmalari, his - tuyg'ulari amaliyotda, hayvonlar, xashoratlar, qushlar hayotini o'rganish va muhofaza qilish bo'yicha ishlarni bajarish, ahloq-odob qoidalariga rioya qilish kabilarga faollik ko'rsatdi.

3.2 Tajriba ishlarining natijalari va tahlili.

Biz olib borgan pedagogik tadqiqot ishlarida qog'ozdan amaliy ishlar bajarish haqidagi tushunchalarni, aqliy, ahloqiy ko'nikmalar kichik yoshdagi o'quvchilarida qog'ozdan amaliy ishlar bajarish ko'nikmasining shakllanganlik darajasining asosiy ko'rsatkichlari sifatida qarab chiqildi. Qog'ozdan amaliy ishlar bajarish ko'nikmasi shakllanganlikning yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlari, shuningdek, o'quvchilarning psixo-logik xususiyatlari hisobiga olingan holda tajriba sinovlaridagi o'quvchilarni shartli ravishda 3 ta guruhga ajratdik.

Sinflar darajalari	Nazorat guruhlari				Tajriba guruhlari			
	Tajriba boshida, 107 nafar bola		Tajriba oxirida, 104 nafar bola		Tajriba boshida, 101 nafar bola		Tajriba oxirida, 98nafar bola	
	Na far	%	Na far	%	Naf ar	%	Na far	%
Birinci (yuqori)	27	25,2	39	37,5	30	29,7	56	57,1
Ikkinchi (o'rta)	21	19,2	29	27,9	20	19,8	29	29,6
Uchinchi (past)	59	55,1	36	34,6	51	50,5	13	13,3

Yuqorida olib borilgan statnstik tahlil shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhlarida qog'oz amaliy ishlarni bajarish ko'nikmasi shakllanishi nazorat guruhlaridagidan sezilarli darajada yuqori bo'lib, bunday

farqlanishi tasodifiy qonuniyatdir. Bu esa eksperiment samaradorligini ifodalaydi.

O'tkazilgan eksperiment natijalarining to'g'riligini ko'rsatdi. Shu sababli biz tadqiqot ishimiz davomida quyidagi xulosaga keldik.

1. Qog'oz amaliy ishlarni bajarish ko'nikmasi shakllantirish haqida tushunchalar - hayotiy va amaliy mazmundagi mehnatsevarlik fazilatlaridan iborat bo'lib, o'quvchilar hayotidan chuqur o'rin oldi.

2. Kichik yoshdagi o'quvchilarda qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish ko'nikmasi shakllantirish natijasida do'stlari, o'rtoqlari, ota - onalari va boshqa kishilar, hayvonlar, qushlar narsalar hayotida va jamiyatda ro'y berayotgan vokiya - hodisalarga o'z munosabatini bildirish va uning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, turli vaziyatlarga to'g'ri yondoshish va uni har tomonlama ijobiy hal qilishning eng qulay usullarini topish, kundalik qayotidagi voqealarni ota-onalariga, ustozlariga aytish va uni tahlil qilish, bu haqda munozara yurita bilish kabilar rivojlanib bordi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish yordamida o'quvchilarda mehnatsevarlikni shakllantirish mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqilgan.

Qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish borasidagi nazariy bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savollar tavsiya etilgan.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda pedagogik kuzatuv, so'rovlar uyushtirish, suqbat, intervyu metodlaridan foydalanilgan.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarida qog'ozdan amaliy ishlarni bajarish ko'nikmasi mohiyatidan habardorlik darajasi ko'rsatilgan. Unda savollarga tajriba va nazorat guruqlaridagi o'kuvchilarning ijobiy va salbiy ko'rsatkichlari, ikkala guruhning faqi, fikrlar xilma-xilligi tahlil etilgan.

Umumiy xulosa.

“Boshlang`ich sinf “ Mehnat ta`limida qog`oz bilan ishlash mashg`ulotlarini tashkil etish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishni yozib to`gatganimdan so`ng quyidagi xulosaga keldim.

Mehnat darslarida qog`oz bilan ishlash mashg`ulotlarini samarali ravishda tashkil qilsak:

- o`quvchilar o`zining sodda ijodiy fikrini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bu esa o`quvchilarni erkin fikrlashga, ijodkorlikka, tashabuskorlikka o`rgatadi.
- o`quvchilar mehnat darslarida o`zlashtirgan bilim, malaka va ko`nikmalarini mustahkamlaydi.
- qog`ozning ishlab chiqarilishi va uning turlari bilan tanishadilar.
- qog`ozga ishlov berish usullari va xususiyatlarini tahlil qila bilishni o`rganadilar.
- materialga ishlov berish uchun asboblarni tanlashni va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishni o`rgatadi
- qog`oz bilan ishlash o`quvchilarda mustaqillikni, tasavvurni namoyon qilishni, ijodiy qobiliyatlarni o`stiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, hamda badiiy estetik didini oshiradi
- o`z vaqtida, rejali, tartibli o`tkazilgan mashg`ulotlar o`quvchilarning qiziqish va havaslarini oshiradi, ma`naviy, mafkuraviy qarashlarini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda o`quvchilarga qog`oz bilan ishlashga o`rgatilsa mehnatsvarlikka, ijodkorlikka, o`rgatilsa, kelajak avlodning barkamol bo`lishida, jamiyatimizning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent – «O'zbekiston» -2011 y
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008, - 40,41-b.
3. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori) 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti
4. Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur (Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori) 1997 yil T.,“Sharq” nashriyoti
5. R.A. Mavlonova va boshqalar “Pedagogika” T., “O'qituvchi” 2007 yil
6. R.A.Mavlonova, Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat va uni o'qitish metodikasi” TDPU. 2007 yil
7. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat ta'limidan amaliy ishlar” TDPU 2007 yil
8. R.A. Mavlonova, G. Maxmudova “Mehnat” Ikkinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. “O'qituvchi” 1992 yil.
9. R.Mavlonova, G. Maxmudova “Mehnat” Uchinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. “O'qituvchi” 1993 yil.
10. R.Mavlonova, I.Mannopova “Mehnat” To'rtinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. “O'qituvchi” 1995 yil.
11. R.Mavlonova “To'rtinchi sinf mehnat darslari” T. ”O'qituvchi” 1989 y.
12. R. Hasanov, H. Egamov “Tasviriy sa'nat va badiiy mehnat” T. “O'qituvchi” 1997 yil.
13. V. Pereverten. “O'quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish” T. “O'qituvchi”. 1990y.
14. Nurmatova M.SH. Hasanova Sh.T “Yumshoq o'yinchoqlar” Toshkent. TDPU. 2005 y
15. Nurmatova M.SH. “Mehnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005 y

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

1. Bob kizlik. Lesson Planning, Lesson Plan Formats and Lesson Plan Ideas.. [www. ADPRIMA com](http://www.ADPRIMA.com).
2. Okolelov O.P. Distantсионное обучение: сущность, дидактические особенности технологии. <http://www.lipetsk.ru/legi>
3. Mila Novik. Современные технологии в образовании (продолжение)// Новые знания. 1999 №4 с 39-42 [www. dvgu.ru /umu/ didjest /new know/ yar 99/ mainkn 99.htm](http://www.dvgu.ru/umu/didjest/newknow/yar99/mainkn99.htm).

TAYANCH SO'ZLAR

- | | | |
|-------------------------|---|------------------------|
| 1. labour | – | mehnat |
| 2. colour paper | – | rangli qog'oz |
| 3. fald | – | buklamoq |
| 4. labor | – | mehnat qurollari |
| 5. scissors instruments | – | qaychi |
| 6. ruler | – | chezg'ich |
| 7. industriousness | – | mehnatsevarlik |
| 8. eraser | – | ochg'ich |
| 9. pencil | – | qalam |
| 10. practical | – | amaliy |
| 11. do | – | bajarmoq |
| 12. pupil | – | o'quvchi |
| 13. teacher | – | o'qituvchi |
| 14. lesson | – | dars |
| 15. elementary class | – | boshlang'ich sinf |
| 16. white paper | – | oq qog'oz |
| 17. education | – | tarbiya |
| 18. cut | – | qirqmoq |
| 19. paper types | – | qog'oz turlari |
| 20. technical | – | texnologiya |
| 21. tempt | – | qiziqtirmoq |
| 22. technique | – | usul, uslub |
| 23. grounding | – | fan |
| 24. persuasiveness | – | asoslilik |
| 25. ad hoc | – | maxsus |
| 26. gallant | – | chiroyli |
| 27. find | – | mahorat bilan |
| 28. found | – | xulosa qilmoq |
| 29. extent | – | o'lchash |
| 30. generalize | – | umumiy xulosaga kelmoq |